**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**RO’YXATGA OLINDI**
№ vm – 343 - 5A3406012 – 2.08
« 1 » Iyul **2003 y**

**«TASDIQLANDI»**
**O’zbekiston Respublikasi**
**Oliy va o’rta maxsus**
**ta’lim vazirligi**

________________________
« 8 » Iyul **2003 y**

# INVESTITsIYa FAOLIYaTIDA LIZING fanidan DASTUR

**Oliy ta’limning 340000 —«Biznes va boshqaruv» ta’lim sohasidagi 5A3406012 — «Kapital qo’yilmalarni m.oliyalashtirish va ularning monitoringa» magistratura mutaxassisligi uchun**

**Toshkent-2003**

**Tuzuvchilar:** prof. Angelidi M. S.
dots. Karimov N. G'.,
dots. Jo'raev A. S

**Taqrizchilar:** dots. Sobirov O. HI.,
k. o'q. Sultanov M. A.

«Investitsiey faoliyatda lizing» fanida lizing munosabatlarining nazariy va huquqiy asoslari, uning mazmuni, mohiyati, lizing operatsiyalarining ishtirokchilari, ularning huquq va majburiyatlari, lizing ishtirokchilarining lizing munosabatlari bo'yicha burchlari o'rganiladi. Ushbu fanda lizing bo'yicha jahon tajribasi, O'zbekistan Respublikasida lizing institutlarining tarkib topishi, lizing huquqchiligining yo'lga qo'yilishi, lizing turlari, lizing shartnomalarining amalga oshirilishi, lizing ishtirokchilarining munosabatlari, lizing operatsiyalari bo'yicha lizing to'lovlari tarkibi, ularni hisoblash usullari, lizing munosabatlari bo'yicha o'zaro iqtisodiy va moliyaviy jarimalar, lizingni O'zbekiston iqtisodiyotida rivojlantirish va takomillashtirish muammolari yoritiladi.

Dasturda lizing investitsiya faoliyatini moliyalashtirishnint maxsus uslubi, bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiyalarni moliyalashtirishning yangi noan'anaviy manbai, bank kreditiga nisbatan qo'yiladigan moliyalashtirish vositasi sifatida ko'riladi, uning kredit munosabatlariga va boshqa manbalar evaziga moliyalashtirishga nisbatan afzalliklari hamda kamchiliklari ochib beriladi.

В дисциплине «Лизинг в инвестиционной деятельности» даются теоретические и правовые основы лизинговых отношений, суть, сущность, участники лизинговых операций, их права и обязанности, долг участников лизинговых операций по лизинговым отношениям. В ней раскрываются мировой опыт лизинга, становления лизинговых институтов в Республике Ўзбекистан, виды лизинга, осуществление лизинговых контрактов, взаимоотношение участников лизинга, состав лизинговых платежей по лизинговым операциям, проблемы развития и усовершенствования лизинга в экономике Ўзбекистана и другие вопросы

Лизинговые операции рассматриваются как особая методика финансирования инвестиционной деятельности, как новый нетрадиционный источник финансирования инвестиций в условиях рыночной экономики, как средство финансирования в отношении к банковскому кредиту, а также раскрываются преимущества и недостатки лизинга по отношению к кредитным операциям с другими источникам финансирования.

Course "Leasing in investment activity" theoretical and law basis

of leasing relations, its meaning, participants of leasing operations, their rights and obligations, the debt of leasing relations participants are represented. The world leasing experience, organization leasing institutions in the Republic of Uzbekistan, leasing issues, realizing leasing contracts, relations of leasing participants, framework of leasing payments in its operations, development and affectivity problems and other matters in Uzbekistan economy are considered here.

Leasing operations are considered as special financing investment activity methodology, as new untraditional source of investment financing in the market economy conditions, as the tool of financing in relation to the banking credit and also discover the leasing advantages and disadvantages in relation to credit and other financing sources.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 25 aprel, 9-sonli bayonnoma)

Dastur O'zbekistan Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul, 37-sonli majlis bayoni).

## 1. SO'Z BOShI

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida lizing munosabatlarini rivojlantirish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Investitsiya faoliyatida esa lizingni qo'llash ishlab chiqarishni tashkil etish va rivojlantirishda o'ta muhim vazifani bajaradi. Bu, o'z navbatida, lizing munosabatlari jarayonini o'rganish va uni O'zbekiston iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirishni taqozo etadi. Lizingni investitsiyalarni moliyalashtirishning yangi, ana'naviy bo'lmagan manbai sifatida qo'llash mamlakatning texnik yuksalishini ta'minlab bera oladi.

O'quv fanining maqsad va vazifalari, boshqa fanlar bilan o'zaro bog'lanishi

«Investitsiey faoliyatda lizing» fanini o'qitishning asosiy maqsadi magistrantlarga investitsiya faoliyatida qo'llaniluvchi lizingning mazmuni, maqsadi, yo'nalishi va istiqbollarini o'rgatishdan iboratdir. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda fanning asosiy vazifasi investitsiya faoliyatida lizingning mohiyat-mazmunini, mavjud investitsiya muhitini, xorijiy investorlarga nisbatan investitsiya siyosatining kelgusidagi yo'nalishini, lizing faoliyatini muvofiqlashtirishni tashkil etish, uni rivojlantirish va shu yo'nalishdagi ishlarni o'rgatish hisoblanadi.

Mazkur fan «Bozor iqtisodiyoti nazariyasi va amaliyoti», «Davlat investitsiya siyosati», «Markazlashtirilgan investitsiyalar va ularni moliyalashtirish», «Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmi», «Investitsion tahlil», «Investitsiya loyihalari monitoringi» kabi fanlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, magistrantlardan ushbu fanlarni ham o'zlashtirishlari talab etiladi.

O'quv fani bo'yicha bilim. ko'nikma va malakalarga talablar

Ushbu fanni o'rganish jarayonida magistrantlar tegishli bilimga, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari lozim.

Magistrantlar umumnazariy fanlardan olgan bilimlari bilan bir qatorda investitsiya va lizing sohasiga oid qonunchilikdagi o'zgarishlardan xabardor bo'lishlari lozim.

«Investitsion faoliyatda lizing» o'quv fani bo'yicha magistrantlar kuyidagi masalalarni bilishlari lozim:

- investitsiya faoliyati;
- lizingning mazmuni va maqsadi, lizing tarixi;
- lizing munosabatlarining nazariy asoslari;
- O'zbekiston Respublikasida lizing faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy - huquqiy asoslar;
- respublikamizda xorijiy investorlar uchun yaratilgan investitsiya muhiti va lizingning iqtisodiyotda qo'llanilishi;
- lizing turlari va uning tavsiflari;
- lizingning afzalliklari va kamchiliklari;
- lizing munosabatlarining jahon tajribasi;
- lizing shartnomalari mazmuni va uni tuzish tartibi;
- O'zbekistonda lizing institutlari faoliyati;
- lizing tulovlari tarkibi;
- lizing jarayonini boshqarish;
- lizing munosabatlari samaradorligining tahlili;
- lizing munosabatlaridagi mavjud muammolar.

Magistrantlar mazkur o'quv fani bo'yicha yuqorida qayd etilgan masalalar bo'yicha tasavvurga ega bo'lishlari, bilimlarini amaliyotda qo'llay olishlari hamda yangiliklarni o'zlashtira bilishi kerak.

Shuningdek, ular kompyuterlardan va boshqa zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish asoslarini o'rgatuvchi fanlarni ham o'zlashtirishlari lozim.

Puxta o’qitish jarayonida nazariya bilan amaliyotni taqqoslash usullarini, magistrantlarning mustaqilligini ta’minlovchi o’quv jarayonini, bilim va ilmga bo’lgan qiziqishini tashkil qilish bilan birga ularning mustaqil bilim olishiga sharoit yaratib berish zarur.

«Investitsion faoliyatda lizing» fanidan olgan bilimlar magistrantlarga oliy o’quv yurtini tamomlagandan so’ng, kundalik faoliyatida uchraydigan dolzarb amaliy masalalarni echishda hamda zamonaviy iqtisodiyotga doir adabiyotlarni o’rganib malakalarini oshirishlarida ham qo’l keladi.

Amaliy, seminar va laboratoriya mashg’ulotlari bo’yicha bajariladigan ishlar miqdoriga minimal talablar

Ishchi o’quv dasturida keltirilgan amaliy (seminar) mashg’ulotlar mavzulari yuzasidan magistrantlar tegishli mavzular bo’yicha konspektlar oladi, referatlar va mustaqil ishlar tayyorlaydi hamda amaliyot o’qituvchisi nazoratida ular yuzasidan og’zaki suhbatdan o’tadilar. Ushbu talablar amaliy mashg’ulotlar mavzularida kursiv bilan ko’rsatilgan savollar bo’yicha magistrantlarning dare jarayonini to’liq o’zlashtirishlarini belgilaydi.

## Auditoriya mashg’ulotlari bo’yicha tavsiyalar

O’quv rejasida fanga jami 60, shu jumladan, 20 ma’ruza, 20 amaliy va 20 mustaqil ta’lim soatlari ajratilgan.

O’quv jarayonida rejaga muvofiq oldin ma’ruza, keyin amaliy mashg’ulot o’tkaziladi. O’tilgan mavzular bo’yicha magistrantlarning mustaqil o’rg.anishi uchun alohida mavzular bo’yicha uy vazifalari beriladi. Ularning olgan bilimlarini baholashda og’zaki yoki yozma usullar qo’llaniladi.

Talabalar bilimini baholash uchun o’tkaziladigan nazorat tadbirlari miqdori

Ushbu fan bo’yicha talabalar bilimini baholash o’quv reyting tizimi bo’yicha joriy, oraliq va yakuniy baholashda yig’ilgan ballar asosida belgilanadi.

Fanni o’qitishda har bir semestrda ikki marotaba joriy, ikki marotaba oraliq va bir marotaba yakuniy baholash amalga oshiriladi. Agar fan bir necha semestr davomida o’qitilishi ko’zda tutilsa, oldingi semestrlar nihoyasida yakuniy baholash og’zaki yoki test usulida amalga oshirilishi mumkin. Oxirgi semestrda esa yakuniy baholash faqat yozma ish usulida amalga oshiriladi.

Kompyuter, informatsiey va boshqa zamonaviy o’qitish tsxnologiyalarini qo’llash

Quyidagilar «Investitsion faoliyatda lizing» fanini o’qitishda foydalaniladigan kompyuter, axborot va boshqa zamonaviy o’qitish texnologiyalarining tarkibiy qismlari hisoblanadi:

- o’quv maksadlari va vazifalar katalogini ishlab chiqish;
- o’quv maqsadlarini test (nazorat) topshiriklariga ko’chirish;
- tarqatma materiallardan, testlar to’plamidan, sayt va kompyuter dasturlaridan foydalanish.
- rejalashtirilgan maqsadlarning bajarilishini baholash.

Magistrantlarga fanni zamonaviy usulda o’rgatish, ularning mustaqil bilim olishiga sharoit yaratish, hamda olgan bilimini mustaqil ravishda baholash uchun quyidagilardan foydalaniladi:

- magistrantlarni oldindan tarqatma materiallar bilan ta’minlashga erishish;
- magistrantlarga o’z bilimini o’zi baholashi uchun sharoit yaratib berish;
- magistrantlarning bilimini tayanch iboralar asosida baholashni joriy qilish;
- magistrantlarni kichik guruhlarga bo’lib o’qituvchilar rahbarligida mustaqil bilim olishga o’rgatish va h.k.

Bu fanni o’qitishda lizing munosabatlariga oid qonunlar, huquqiy-me’yoriy hujjatlar, yo’riqnomalar, nizomlar va lizing operatsiyalari samaradorligini baholashning kompyuter dasturlaridan, yangi kompyuter texnologiyalardan, tarqatma materiallardan, testlar to’plamidan ham foydalanish mumkin.

Ish dasturini tuzishga oid uslubiy tavsiyalar

Mazkur fan "Kapital qo’yilmalarni moliyalashtirish va ularning monitoringi" yo’nalishida birinchi semestrda o’qitilishi rejalashtirilgan. By fanni o’qitishdl lizing sohasiga oid huquqiy-me’yoriy xujjatlar, yo’riqnomalar, nizomlar va lizing operatsiyalari samaradorligini baholashning kompyuter dasturlaridan foydalanish mumkin.

«Investitsion faoliyatda lizing» fani ma’ruza va amaliy mashg’ulot shaklida auditoriyada o’rgatiladi. Magistrantlarning o’quv jarayonida auditoriyada olgan bilimlari o’qituvchilar hamda belgilangan hay’at a’zolari tomonidan reyting tizimi asosida baholanadi.

## 2. FAN DASTURI

«Investitsion faoliyatda lizing» fani bo’yicha o’qiladigan ma’ruza mavzulari:

Fanning predmeti va mazmuni. Lizing munosabatlarining nazariy asoslari

Fanning predmeti va vazifalari. Fanning boshqa fanlar bilan o’zaro bog’liqligi. Lizing tushunchasi. Lizingning taraqqiy etish tarixi. Lizingning iqtisodiy mazmuni va mohiyati, uning funktsiyalari. Lizing munosabatlarining ob’ektlari va sub’ektlari. Lizingning sifat jihatdan afzalliklari. Lizing turlari. Tadbirkorlik faoliyatpini kengaytpirishda lizingning o’rni. Lizing va kichik tadbirkorlik.

### Lizing munosabatlarining jahon tajribasi

Xalqaro lizing, uning rivojlanishi. Jahonning etuk mamlakatlarida lizingning taraqqiy etishi. Jahon lizing bozori. AQShda lizingning rivojlanishi. Yaponiyada lizing munosabatlari. G’arbiy va Markaziy Evropada lizing munosabatlarining yo’lga qo’yilishi. Germaniya, Buyuk Britaniya, Frantsiya va boshqa mamlakatlarda lizingni rivojlanishi. Xalkaro moliyaviy lizing to’grisida Ottava konventsiyasi.

### O’zbekistonda lizing munosabatlarining huquqiy ta’minoti

Lizingning huquqiy asoslari. O’zbekistonda lizingni tartibga soluvchi huquqiy va me’yoriy hujjatlar. O’zbekiston Respublikasining «Lizing to’g’risida»gi Qonuni. Lizingning huquqiy jihatdan tartibga solinishi. Lizing munosabatlarining ishtirokchilari. Lizing beruvchining huquq va majburiyatlari. Lizing oluvchining huquq va majburiyatlari. Sotuvchining huquq va majburiyatlari. Lizing beruvchi va lizing oluvchining uchinchi shaxslar foydasiga o’z xukuklaridan voz kechishi. Lizing ishtirokchilarining javobgarligi.

Lizing shartnomalarining iqtisodiy mexanizmi (asoslash va tayyorlash hamda uslubiy jihatdan ta’minlash)

Shartnoma - lizingning huquqiy shakli. Lizing shartnomasining mazmuni. Lizing shartnomalarini tuzish. Lizing shartnomalarining shakllari. Lizing oldi-sotdi shartnomasi. Asbob-uskunalar bilan ta’minlash shartnomalari. Moliyaviy lizing shartnomasi. Kyfolat kelishuvnomalari. Garov shartnomasi. Lizing loyihasining dastlabki ekspertizasi va uni o’tkazish tartibi. Lizing asosida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari ekspertizasi. Lizing oluvchi faoliyatini moliyaviy baholash. Lizing ishtirokchilarining amortizatsiya siyosati va manfaatlari. Lizing munosabatlarining iqtisodiy samaradorligi. Lizing munosabatlarida risklarni baholash. Lizing munosabatlarini yo’lga qo’yishda risklarni taqsimlash. Lizing faoliyatini sueurtalash. Lizing loyixasining ekspert xulosasi.

### O’zbskistonda lizing institutlarining rivojlanishi

Lizing institutlarini rivojlantirishning ob’ektiv zaruriyati. Lizing institutlarining tavsifi. Lizing institutlarini rivojlantirish bo’yicha O’zbekiston Respublikasining qarorlari.

O’zbekistonda lizing institutlarini tashkil etish shakllari. O’zbekistondagi lizing institutlarining funktsiyalari va vazifalari.

### Lizing to’lovlari hisobi

Lizing to’lovlari tarkibi. Lizing to’lovlarining turlari va shakllari. Lizing to’lovlarini hisoblash uslublari va uslubiyoti. Lizing to’lovlari shartlari. Mulkdan faydalanish va uni tsaytarish.

Lizing jarayonini boshqarish va uning samaradorligini ta’minlash

Lizing munosabatlarini tartibga solish shakllari. Lizingni boshqarishning tashkiliy shakllari. Lizing kompaniyalarini tashkil etish. Lizing kompaniyalari negizida birlashmalar tashkil etishning asoslari. Lizing operatsiyalarining buxgalteriya hisobi. Lizing mulkini lizing beruvchida hisobga olish. Banklarda lizing operatsiyalari hisobini yo’lga qo’yish. Lizing operatsiyalarining iqtisodiy samaradorligini aniqlash ko’rsatkichlari.

### O’zbekistonda lizingni rivojlantirish muammolari

Lizing infratuzilmasini rivojlantirish. Lizing munosabatlarini rivojlantirishda makroiqtisodiy muammolar. Lizing mulkini soliqqa tortish muammolari. Lizing operatsiyalarini soliqqa tortish va unda soliq imtiyozlarini qo’llash. O’zbekiston Respublikasida amortizatsiya siyosati va lizing shartnomalarida tezlashtirilgan amortizatsiyani joriy etishning lizing rivojlanishiga ta’siri. Xalkaro lizing rivojlanishidagi muammolar. Lizing munosabatlarining asoslarini takomillashirish. Agrosanoat majmuida lizing munosabatlarining o’ziga xos xususiyatlari.

## 3. AMALIY (SEMINAR) MAShG’ULOTLAR MAVZULARINING TAXMINIY RO’YXATI

### Lizing munosabatlarining nazariy asoslari

Lizing tushunchasi Llzingning taraqqiy etishi tarixi. Lizingning iqtisodiy mazmuni va mohiyati, uning funktsiyalari. Lizing munosabatlarining ob’ektlari va sub’ektlari. Lizingning sifat jihatdan afzalliklari. Lizing turlari. Tadbirkorlik faoliyatini kengaytirishda lizingning o’rni. Lizing va kichik tadbirkorlik.

### Lizing munosabatlarining jahon tajribasi

Xalqaro lizing, uning rivojlanishi. Jahonning etuk mamlakatlarida lizingning taraqqiy etishi. Jahon lizing bozori. AQShda lizingning rivojlanishi. Yaponiyada lizing munosabatlari.

G’arbiy va Markaziy Evropada lizing munosabatlarining yo’lga qo’yilishi. Germaniya, Buyuk Britaniya, Frantsiya va boshqa mamlakatlarda lizingni rivojlanishi. Xalqaro moliyaviy lizing to’g’risida Ottava konventsiyasi.

### O’zbekistonda lizing munosabatlarining huquqiy ta’minoti

Lizingning huquqiy asoslari. O’zbekistonda lizingni tartibga soluvchi huquqiy va me’yoriy hujjatlar. O’zbekiston Respublikasining «Lizing to’g’risida» gi Qonuni. Lizingning huquqiy jihatdan tartibga solinishi. Lizing munosabatlarining ishtirokchilari. Lizing beruvchining huquq va majburiyatlari. Lizing oluvchining huquq va majburiyatlari. Sotuvchining huquq va majburiyatlari. Lizing beruvchi va lizing oluvchinin uchinchi shaxslar foydasiga o’z huquqlaridan voz kechishi. Lizing ishtirokchilarining javobgarligi.

Lizing shartnomalarining iqtisodiy mexanizmi (asoslash va tayyorlash hamda uslubiy jihatdan ta’minlash)

Shartnoma - lizingning huquqiy shakli. Lizing shartnomasining mazmuni Lizing shartnomalarini tuzish. Lizing shartnomalarini shakllari. Lizing oldi-sotdi shartnomasi. Asbob-uskunalar bilan ta’minlash shartnomalari. Moliyaviy lizing shartnomasi. Kafolat kelishuvnomalari. Garov shartnomasi. Lizing loyihasining dastlabki ekspertizasi va uni o’tkazish tartibi. Lizing asosida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari ekspertizasi.

Lizing oluvchi faoliyatini moliyaviy baholash. Lizing ishtirokchilarining amortizatsiya siyosati va manfaatlari. Lizing munosabatlarini pqtisodiy samaradorligi. Lizing munosabatlarida risklarni baholash. Lizing munosabatlarini yo'lga qo'yishda risklarni taqsimlash. Lizing faoliyatini sug'urtalash. Lizing loyihasini ekspert xulosasi.

**O'zbekistonda lizing institutlarining rivojlanishi**

Lizing institutlarini rivojlantirishning ob'ektiv zaruriyati. Lizing institutlarining tavsifi. Lizing institutlarini rivojlantirish bo'yicha O'zbekistan Respublikasining qarorlari. O'zbekistonda lizing institutlarini tashkil etish shakllari. O'zbekistondagi lizing institutlarining funktsiyalari va vazifalari.

**Lizing to'lovlari hisobi**

Lizing to'lovlari tarkibi. Lizing to'lovlari turlari va shakllari. Lizing to'lovlarini hisoblash uslublari va uslubiyoti. Lizing to'lovlari shartlari. Mulkdan foydalanish va uni qaytarish.

Lizing jarayonini boshqarish va uning samaradorligi ta'minlash

Lizing munosabatlarini tartibga solish shakllari. Lizingni boshqarishning tashkiliy shakllari. Lizing kompaniyalarini tashkil etish. Lizing kompaniyalari negizida birlashmalar tashkil etishning asoslari. Lizing operatsiyalarining buxgalteriya hisobi. Lizing

http:// www.ici.org/
http://www.aimr. org/
http://www.nasbic. org
http://www.hondurasinfo.hn/
http://farmbill.farmbill.unl.edu/
h t tp: //www.eaglein vsys.com/
http://ww-W-Apexvc.com

Shuningdek, respublikamizda chop etilayotgan gazeta va jurnallardan mutaxassisligiga tegishli ma'lumotlardan, "O'zbekinvest" eksport-import milliy suturta kompaniyasi, "Baraka lizing", "O'zkeysagrolizing", "O'zqishloqmashlizing", "Avializing" kompaniyalari, "Kafolat", "Madad" suturta kompaniyalari, Xorijiy investitsiyalar bo'yicha Agentlik, Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi kabi vazirlik va idoyoralarning amaliy

mulkini lizing beruvchilar hisobga olish. Banklarda lizing operatsiyalari hisobini yo'lga qo'yish. Lizing operatsiyalarining iqtisodiy samaradorligini aniqlash ko'rsatkichlari.

**O'zbekistonda lizingii rivojlantirish muammolari**

Lizing infratuzilmasini rivojlantirish. Lizing munosabatlarini rivojlantirishda makroiqtisodiy muammolar. Lizing mulkini soliqqa tortish muammolari. Lizing operatsiyalarini soliqqa tortish va unda soliq imtiyozlarini qo'llash. O'zbekiston Respublikasida amortizatsiya siyosati va lizing shartnomalarida tezlashtirilgan amortizatsiyani joriy etishning lizing rivojlanishiga ta'siri. Xalqaro lizing rivojlanishidagi muammolar. Lizing munosabatlarining asoslarini takomillashirish. Agrosanoat majmuida lizing munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari.

## 4. TAVSIYa ETILAYoTGAN MAVZULAR BO'YIChA KO'RGAZMA-NAMOYISh MATERIALLARI, O'QUV FILMLARI VA BOShQA DIDAKTIK MATERIALLAR RO'YXATI

Ta’lim jarayonida ko’rgazmali vositalardan, slaydlar, diaproektor va jadvallardan foydalanish ko’zda tutilgan. Ayrim aniq masalalarni o’rganishda shaxsiy kompyuterlardan ham foydalanish tavsiya etiladi.

«Investitsion faoliyatda lizing» fanini o’rganishda amaliy yordam tariqasida magistrantlar lizing operatsiyalarini o’rganish bo’yicha chizmalar, slaydlar bilan ta’minlanadi.

Magistrantlarga «Investitsion faoliyatda lizing» fanini o’rganishda turli xil axborot vositalaridan, shu jumladan Internet tizimidagi quyidagi sayd va elektron pochtalardan foydalanishlari tavsiya etiladi:

ma teriallaridan, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent moliya institutida tayyorlangan o’quv filmlar, didaktik materiallar va mulgimediya ilovalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

## 5. O’ZLAShTIRISh NAZORATI

Magistrantlarni fan bo’yicha o’zlashtirishlarini baholash semestr davomida muntazam ravishda olib boriladi va joriy, oraliq, yakuniy baholash orqali amalga oshiriladi;. Joriy va oralik. baholash turiga ajratilgan ballar mikdori o’quv rejasida fanga ajratilgan soatning 70 foizi, yakuniy baholash esa 30 foiz miqdorida belgilangan

«Investitsion faoliyatda lizing» fanidan magistr to’plashi mumkin bo’lgan maksimal ball 40 ga teng bo’lib, shundan joriy baholashga 14, oraliq baholashga ham 14, yakuniy baholashga 12 ball ajratiladi. Joriy va oraliq baholash belgilangan ballar quyidagi mezonlar asosida ko’yiladi:

- magistrantning o’quv jarayonidagi davomati va faolligi;
- amaliy (seminar) mashg’ulotlarga tayyorgarlik darajasi;
- dolzarb mavzular bo’yicha referatlar yozishi;
- mustaqil ta’lim uchun berilgan nazorat ishlarini bajarishi;
- fan bo’yicha ko’rgazmali qurollarni tayyorlashi.

Tayanch iboralarga asoslangan yozma ishni o’tkazish tartibi "Reyting tizimini yakuniy baholash bosqichida yozma ish usulini tadbiq etish bo’yicha namunaviy Nizom" bilan belgilanadi. Semestr davomida fanlar bo’yicha to’plangan ballar quyidagi o’zlashtirish ko’rsatkichlari bilan baholanadi.

86 - 100 foizgacha (51,6 balldan 60 ballgacha) "a’lo";
71 - 85 foizgacha (42,6 balldan 51,5 ballgacha) "yaxshi";
55 - 70 foizgacha (33 balldan 42,5 ballgacha) "koniqarli";
55 foizdan kam (0 dan 32,9 ballgacha) "qoniqarsiz".

## 6. ADABIYoTLAR

### Asosiy adabiyotlar


1. O’zbekistan Respublikasining «Chet ellik investitsiyalari to’g’risida» gi K,onuni, 1998. 30 aprel.
2. O’zbekistan Respublikasining «Chet ellik investorlar huquklarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to’g’rismda» gi Konun. 1998. 30 aprel.
3. Karimov I.A. O’zbekistan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo’lida. - T.: O’zbekiston, 1995.
4. Karimov I.A. O’zbekistan XXI asrga intilmoqda. - T.: O’zbekiston, 1999.
5. Ukaz Prezidenta Respubliki O’zbekistan «O merax po sovershenstvovaniyu realizatsii proektov s inostrannimi investitsiyami». //Narodnoe slovo. 1998. 9 fevralya.
6. Ukaz Prezidenta Respubliki O’zbekistan «O dopolnitelnix stimulax i lgotax, predostavlyaemix predpriyatiyam s inostrannimi investitsiyami».//Narodnoe slovo. 1998. 27 marta.
7. Angelidi M.S. G’ozibekov D.G. Lizingoviy kredit va texnicheskiy progress - T., 1991.

8. Abdullaeva Sh. 3. Pul, kredit va banklar. - T.: Moliya, 2000.
9. Abdullaeva Sh. 3. Bank risklari va kreditlash. - T.: Moliya, 2002.
10. Angelidi M.S. Analiz investitsionnix proektov: Uchebnoe posobie- T.: TFI, 2000.
11. Abryutina M.S, Gracheva A.V. Analiz finansovo-ekonomicheskoy deyatelnosti predpriyatiy: Ucheb.-prakt. pos. -M.: Delo i Servis, 2001.
12. Bozor iqtisodiyoti nazariyasi va amaliyoti. Darslik, mualliflar guruhi. - T.: O'qituvchi, 2000.
13. Bankovskoe delo i finansirovanie investitsiy, t.1, t.2. Pod. red. N. Bruka (Vsemirniy Bank Rekonstruktsii i Razvitiya) Institut ekonomicheskogo razvitiya Vsemirnogo Banka, 1995.
14. Vasilev N.M., Katirin S.N., Lepe L.N. Lizing kak mexanizm razvitiya investitsiy i predprinimatelstva. - M.: DEKA, 1999.
15. Gazman V.D. Rinok lizingovix uslug. -M.:Pravovaya kultura, 1999. Garemikin V.A.Lizing. Prakticheskoe uchebno-spravochnoe posobie. - M.: INFRA-M, 1997.
16. G'ozibekov D.G., Angelidi M.S, Karimov N.G. Finansovoe obespechenie investitsiy v ekonomiku O'zbekistana. - T., 1995.
17. G'ozibekov D.G., Sobirov O.Sh. Lizing i ego razvitie v O'zbekistane. - T.: Moliya, 2001.
18. Igoshin N.V. Investitsii. - M.: YuNITI, 1999.
19. Kovalev V.V. Finansoviy analiz. Upravlenie kapitalom. Vibor investitsiy. Analiz otchetnosti - M.: Finansi i statistika, 2000.
20. Radionova SP., Radionov N.V. Otsenka investitsionnix resursov predpriyatiy. - M.: Alfa,2001.
21. Karp M.V., Shabalin E.M., Eriashvili N.D., Istomin O.B. Lizing i ego ekonomicheskie i pravovie osnovi. - M.: YuNITI - Dana, 2001.
22. Sergeev I.V., Veretennikova N.I. Organizatsiya i finansirovaniya investitsiy. - M.: Finansi i statistika, 2000.

**Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Leshchenko M.I. Osnovi lizinga. Ucheb. pos. - M.: Finansi i statistika, 2000.
2. Gusakov B.I. Ekonomicheskaya effektivnost investitsionnoy sobstvennosti. - M.: Finansi, 1998.
3. Sergeev A.A. Ekonomicheskie osnovi biznes planirovaniya. - M.: YuNITI - Dana, 1999.
4. Lojnikov A.V. Investitsionniy analiz i kontrol investitsionnoy deyatelnosti. - M.: Finansi i statistika, 2001.
5. Margolin A.M. Ekonomicheskaya otsenka investitsiy. - M.: Finansi i statistika, 2001.

Moskvin V.A. Kreditovanie investitsionnix proektov. - M.: Finansi i statistika, 2001.